
QO'SHTEPA TUMANI HOKIMLIGI AXBOROT XIZMATINING BAYONOTI

Qo'shtepa tumani Balandmasjid MFY Navro'z ko'chasidan yozilgan imzosiz xatga tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi direktori Sh. Umurzaqov shunday javob beradi: «Korxonamiz tasarrufidagi umumfoydalanuvdagi mahalliy ahamiyatga ega **4K-864 "Marg'ilon temir yo'l stansiyasi - Qumtepa - Qoraqushchi qishlog'i - Oxunboboyev temir yo'l stansiyasi"** avtomobil yo'li Prezident tashrifi munosabati bilan emas, balki joriy ta'mirlash ishlari hisobidan bajarildi. Yo'lning 2-km qismidagi o'ng tomondagi tutashmada buzilishlar va chuqurchalar mavjudligi hamda umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'lga chang va iflosliklar chiqmasligi uchun 38 m² qismi ta'mirlanib, eski asfalt beton qoplamaga ulandi. Umumfoydalanuvdagi avtomobil yo'lga tutashgan ushbu ko'cha tuman hokimligi va tuman obodonlashtirish boshqarmasiga qarashli ichki xo'jalik yo'l bo'lib, tuman hokimligi tomonidan manzilli dasturga kiritilgandan so'ng ta'mirlash ishlari olib boriladi».

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati

2020-06-05 15:57:51